
BARCHASI INSON QADRI UCHUN

Pandigon MFYda “Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mezonlari asosida ishlar olib borilayotgani haqida avval xabar bergan edik.

Erta tongdan shtab ish faoliyatini boshladi. Tuman hokimi Bahodir Xoliqov boshchiligida Respublika ishchi guruhi a‘zolari, hokim o‘rinbosarlari, tashkilot, korxonah rahbarlari ishtirokida shtab yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

–Pandigon mahallasining barcha xonadonlarini uyma-uy yurib, muammo va kamchiliklarini bartaraf etamiz, – dedi tuman hokimi. – Barcha tashkilot rahbarlari ishga mas‘uliyat bilan yondoshishi kerak. Barchamiz bir yoqadan bosh chiqarib, Respublika bo‘yicha namuna qilib ko‘rsatadigan darajaga keltiramiz.

Pandigon MFYda obodonlashtirish ishlari avjida olib borilmoqda. Bajarilayotgan ishlar mas‘ullarning nazoratida. Mahallada amalga oshirilayotgan ishlarni e‘tiboringizga havola etib boramiz.

RISHTON TUMANI HOKIMLIGI AXBOROT XIZMATI

2023-09-13 14:01:10